

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMİY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMİY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KURDASHEV KUDRAT DAVLYATOVICH

**SUG'ORILADIGAN GIPSLI TUPROQLAR UNUMDORLIGINI
BAHOLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI
(Mirzaobod tumani tuproqlari misolida)**

03.00.13-«Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по биологических наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
biological sciences**

Kurdashev Kudrat Davlyatovich

Sug‘oriladigan gipsli tuproqlar unumdorligini baholash va ulardan samarali foydalanish yo‘llari (Mirzaobod tumani tuproqlari misolida) 3

Курдашев Кудрат Давлятович

Оценка плодородия орошаемых гипсовых почв и пути их эффективного использования (на примере почв Мирзаабадского района) 21

Kurdashev Kudrat Davlyatovich

Assessment of fertility of irrigated gypsum soils and ways of their effective use (on the example of Mirzaabad district soils) 41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMİY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 RAQAMLI ILMİY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVİY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

KURDASHEV KUDRAT DAVLYATOVICH

**SUG'ORILADIGAN GIPSLI TUPROQLAR UNUMDORLIGINI
BAHOLASH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI
(Mirzaobod tumani tuproqlari misolida)**

03.00.13-«Tuproqshunoslik»

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B856 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti veb-sahifasida (<http://www.soil.uz.>) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turdimetov Shaxobiddin Muxitdinovich
biologiya fanlari doktori, dotsent
Guliston davlat universiteti

Parpiyev G‘ofirjon Toxirovich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.25/30.12.2019.Qx/B.43.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» ____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00; e-mail: info@soil.uz.

Dissertatsiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko‘chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 246-09-50; faks: (99871) 246-76-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» ____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» ____ dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.M.Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

J.M.Ko‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., katta ilmiy xodim

R.Kurvantaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminarga raislik qiluvchi, q.x.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyoning ko‘plab mamlakatlarida gipsli tuproqlar mavjud bo‘lib, «Uyg‘unlashtirilgan dunyo tuproq ma’lumotlar ba’zasi (HWSD)»ga kiritilgan 40 dan ortiq mamlakatlarda gipsli tuproqlarning umumiyligi maydoni 1421694 km², shundan, katta maydonlar Xitoyda 578228 km², Liviyada 154714 km², Somalida 98203 km², Mongoliyada 89677 km², Efiopiyada 85635 km², Qozog‘istonda 54040 km², Suriyada 39325 km², Yamanda 30387 km² ni tashkil etadi»¹. Shu sababli dunyoning ko‘plab arid mintaqalaridagi mamlakatlarda gipsli tuproqlarni boshqarish orqali ularning unumdarligini qayta tiklash, qishloq xo‘jaligida samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda gipsli tuproqlarni boshqarish, ularni qishloq xo‘jaligida foydalanish imkoniyatlarini baholash orqali gipsli yerlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada tuproqlarda gipsni paydo bo‘lishi va shakllanishi, yog‘ingarchilik va sug‘orishning ularni xossa-xususiyatlariga ta’sirini aniqlash, gipsli tuproqlarni xaritalashtirish orqali tuproqlarining gipslashganlik darajasi, gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligini inobatga olingan holda qishloq xo‘jaligida ekinlarini joylashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda gipsli tuproqlarning hozirgi holatini aniqlash, ekologik-meliorativ holatini yaxshilash, sifat jihatidan unumdarligini baholash va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish» maqsad qilib olingan bo‘lib, mazkur maqsadga erishishda «Tuproq unumdarligini oshirish va muhofaza qilish»² asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham qiyin melioratsiyalanadigan gipsli tuproqlarning kelib chiqishi va shakllanishi, xossa-xususiyatlarini aniqlash, meliorativ holatini baholash, gipsli tuproqlarni sifat jihatidan unumdarligini baholash bo‘yicha pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni takomillashtirish, gipsli tuproqlar sifatini baholash va unumdarlik darajasini belgilash orqali bunday yerlardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5853-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-fevraldagagi «Qishloq xo‘jaligi yerlari unumdarligini oshirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 97-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ http://www.techpharm.ru\nature1_soil 2017

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Gipsli tuproqlarning genezisi, xossa-xususiyatlari, meliorativ holatini aniqlash, sifat jihatidan unumdorligini baholash orqali ularni boshqarish hamda gipsli yerlardan samarali foydalanishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar xorijlik olimlardan Mortinez-Mortoya, O.Arteda, D.C.Wendorf, S.J.Nield, J.Herrero, J.Porta, R.E.Nelson, H.Esvaran, G.D.Smith, Y.Samiy hamda respublikamiz olimlaridan A.A.Rasulov, M.U.Umarov, L.T.Tursunov, R.Q.Qo‘ziev, L.A.Gafurova, G.Yuldashev, V.Yu.Isaqov, A.A.Ramazonov, S.A.Azimboev, U.Norqulov, R.Kurvantaev, N.Yu.Abduraxmonov, M.T.Isag‘aliev, A.U.Axmedov, Sh.M.Turdimetov, G.T.Parpiev, O.T.Sobitov, U.B.Mirzaev, D.Yu.Mahkamova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin, sug‘oriladigan gipsli tuproqlarda gips shakllari, gipsli qatlam chuqurligi va qalinliklarini aniqlash, gipsli tuproqlarning unumdorligini baholashda qo‘llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyentlarini takomillashtirish va kartogrammalar tuzish asosida sug‘oriladigan gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashga qaratilgan tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy-tadqiqotlar rejasingning №IZ-202011273 «Geoaxborot (GIS) texnologiyalari asosida gipsli sug‘oriladigan tuproqlarning 3D kartalari va gipslashganlik kartogrammalarini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha hamda Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti o‘rtasida tuzilgan №2022-36сон «Sirdaryo viloyatidagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug‘oriladigan yerlarining tuproq kartalarini tuzish va tuproq sifatini baholash ishlarini bajarish» mavzusidagi shartnomada doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning xossa-xususiyatlarini aniqlash, sifat jihatidan baholash va unumdorlik darajasini belgilash orqali gipsli tuproqlar unumdorligini qayta tiklash hamda ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududning sug‘oriladigan gipsli tuproqlari morfogenetik xususiyatlari, agrofizikaviy, agrokimyoviy, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari aniqlash;

gips shakllari, gipsli qatlam chuqurligi va qalinliklarining tuproq xossalariiga ta’sirini o‘rganish va gipsli tuproqlarni meliorativ holatini baholash;

sug‘oriladigan gipsli tuproqlarni gipslashganlik darajasi, gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi bo‘yicha 1:10000 masshtabli kartogrammalarini tuzish;

gipsli tuproqlarning gipslashganlik darajasi bilan g‘o‘za ekini hosildorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklarni aniqlash;

gipsli tuproqlarning unumdorligini baholashda qo‘llaniladigan pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni takomillashtirish;

sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning sifat jihatidan baholash va 1:10000 mashtabli tuproq sifatini baholash kartalarini tuzish;

sug‘oriladigan gipsli tuproqlarni genetik-meliorativ holati va unumdorligi bo‘yicha olingan ma’lumotlar asosida gipsli tuproqlar unumdorligini qayta tiklash hamda ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy-amaliy yechimlar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi, o‘tloqi-bo‘z va o‘tloqi tuproqlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti yarim avtomorf, yarim gidromorf va gidromorf tuproqlarning xossa-xususiyatlari, tuproq unumdorligi, tuproq unumdorligini chegaralovchi omillar, korrelyativ bog‘liqliklar, pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsientlari, gipslashganlik darajasi, gipsli qatlam boshlanish chuqurligi, gipsli qatlam qalinligi, gipslashganlik kartogrammalari, tuproq sifatini baholash kartasi va ball boniteti hisoblanadi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lib, izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan keng foydalanilgan. Shulardan, tuproqning kimyoviy tahlillari «Руководство по химическому анализу почв» qo‘llanmasidan, dala, kameral va kartografik ishlari «Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnomasi»si hamda tuproq sifat baholash ishlari «O‘zbekiston Respublikasi sug‘oriladigan tuproqlarini bonitirovkalash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma»sida bayon etilgan uslublarda bajarilgan va olingan ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo‘llanmasi va «Microsoft Excel» dasturi yordamida dispersion uslub asosida hisoblangan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

hudud gipsli tuproqlarining gipslashganlik darajasi va gips shakllariga bog‘liq holda tuproq profilining o‘rta qatlamlarida zichlanish darajasini ortib ($HM\ 1,68-1,71\ g/sm^3$) borishi aniqlangan;

turli darajada gipslashgan tuproqlarning gipslashganlik darajasi, gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi aniqlangan, ularning tuproq xossalariga bo‘lgan ta’siri asoslangan;

gipsli tuproqlarning gipslashganlik darajasi bilan g‘o‘za ekini hosildorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqlik ilmiy asoslangan;

sug‘oriladigan tuproqlardagi gips miqdorini hisobga olgan holda gipslashganlik darajasi bo‘yicha pasaytiruvchi koeffitsiyentlar ishlab chiqish orqali gipsli tuproqlar unumdorligini sifat jihatidan baholash uslubi takomillashtirilgan;

gipsli tuproqlardagi sho‘rlanish jarayonini hisobga olgan holda yershing meliorativ holati hamda gipslashganlik darajasi va gipsli qatlam chuqurligi bo‘yicha pasaytiruvchi koeffitsiyentlar asosida tuproq unumdorligi sifat jihatidan baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tayanch massiv sug‘oriladigan gipsli tuproqlari uchun gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi bo‘yicha 1:10000 mashtabli kartogrammalar ishlab chiqilgan;

tayanch massiv hududi yerlarining gipslashganlik darajalarini hisobga olgan holda sug‘oriladigan gipsli tuproqlar sifat jihatidan baholangan va massivning 1:10000 mashtabli tuproq sifatini baholash kartasi tuzilgan;

tayanch massiv sug‘oriladigan tuproqlari tarkibidagi gips miqdoridan kelib chiqib, yer maydonlarining gipslashganlik darajalari bo‘yicha 1:10000 mashtabli kartogrammasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarni dala, laboratoriya, kameral va kartografik usullardan foydalangan holda o‘tkazilganligi, g‘o‘za hosildorligi bilan tuproqning gipslashganlik darjasini o‘rtasida ishonchli korrelyatsion bog‘liqlik aniqlanganligi, gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholash koefitsiyentlarini takomillashtirilganligi, nazariy va amaliy natijalarini bir-biriga mosligi, olingan ma’lumotlarga statistik ishlov berilganligi, tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududdagi gipsli tuproqlardagi gips miqdori va shakllariga bog‘liq holda tuproq profilining o‘rta qatlamlarida zichlanish darajasini ($HM\ 1,68-1,71\ g/sm^3$) ortganligi, turli darajada gipslashgan tuproqlarning gipslashganlik darjasini, gipsli qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi aniqlanganligi hamda ularning tuproq xossalari bo‘lgan ta’siri, gipslashganlik darajalari bilan g‘o‘za ekini hosildorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklar ilmiy asoslanganligi, sug‘oriladigan tuproqlarning gipslashganlik darjasini bo‘yicha pasaytiruvchi koefitsiyentlar ishlab chiqish orqali gipsli tuproqlar unumdorligini baholash uslubi takomillashtirilganligi, tuproqlardagi sho‘rlanish jarayonini hisobga olgan holda yerlarning meliorativ holati hamda gipslashganlik darjasini va gips qatlam qalinligi bo‘yicha pasaytiruvchi koefitsiyentlar asosida tuproq unumdorligi sifat jihatidan baholanganligi, sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning unumdorligini qayta tiklash hamda ulardan samarali foydalanishga doir ilmiy yechimlar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, sug‘oriladigan gipsli tuproqlar uchun ishlab chiqilgan tuproqlarning gipslashganlik darjasini, gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi bo‘yicha kartogrammalar va tuproq sifatini baholash kartasi massivdagi yerdan foydalanuvchi subyektlar, agrokasterlar, fermer va dehqon xo‘jaliklarida gipsli yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, sug‘orish me’yorlari va boshqa agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri belgilashga, mazkur tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdorlik darajasiga qarab yerlarning me’yoriy qiymatini hisoblash, unumdorligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashvosini yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choralar belgilashga, shuningdek, qiyin melioratsiyalanadigan gipsli tuproqlar unumdorligini qayta tiklash hamda yer resurslaridan samarali foydalanishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning unumdonlik darajasini baholash va ulardan samarali foydalanish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mirzaobod tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv uchun 1:10000 masshtabli sug‘oriladigan tuproqlarining gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligi kartogrammalari tuzilgan va massivdagi 4692,0 hektar sug‘oriladigan yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 27-martdagi 05/05-04-99-son ma’lumotnomasi). Natijada, yerdan foydalanuvchi sub’yektlar, agroklasterlar, fermer va dehqon xo‘jaliklarida gips qatlam boshlanish chuqurligi va gips qatlam qalinligini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, sug‘orish me’yorlarini va boshqa agrotexnik tadbirlarni to‘g‘ri belgilash imkonini bergen;

Mirzaobod tumani Y.Oxunboboyev nomli massivning 4692,0 hektar sug‘oriladigan yer maydonlari uchun 1:10000 masshtabli tuproq sifatini baholash kartasi ishlab chiqilgan va massiv hududidagi fermer xo‘jaliklar foydalanishlari uchun amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 27-martdagi 05/05-04-99-son ma’lumotnomasi). Natijada, sug‘oriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlari va unumdonlik darajasiga qarab yerlarning me’yoriy qiymatini hisoblash, unumdonligi past bo‘lgan yerlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashvosini yetishtiruvchi qishloq xo‘jaligi korxonalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan choratadbirlarni belgilashga imkon bergen;

Mirzaobod tumani Y.Oxunboboyev nomli massiv sug‘oriladigan o‘tloqi bo‘z tuproqlarining 1:10000 masshtabli gipslashganlik darajalari bo‘yicha kartogrammasi tuzilgan va massivdagi 4692,0 hektar yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazining 2024-yil 27-martdagi 05/05-04-99-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur kartogramma ma’lumotlari asosida gipsli yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha bajarilgan chuqur yumshatish agrotadbiri natijasida g‘o‘zadan hektariga kuchsiz gipslashgan yerlarda 2,8 sentner, o‘rtacha gipslashgan yerlarda 7,8 sentner qo‘sishma hosil olish imkonini bergen.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 13 ta, shundan 2 tasi xalqaro, 11 tasi respublika ilmiy-amaliy anjuman va konferensiyanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan bo‘lib, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiyligi hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati olib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Sug‘oriladigan gipsli tuproqlar va ularni sifat jihatidan baholashning hozirgi holati**» deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda mavzu doirasida xorijiy va respublikamizda olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari yoritilgan, ilmiy adabiyotlari tahlil qilingan. Shuningdek, sug‘oriladigan tuproqlarda gipsning paydo bo‘lishi, shakllanishi va tarqalish qonuniyatları, gipsning tuproq xossalariiga bo‘lgan ta’siri, uning paydo bo‘lishiga relyef, o‘simlik qoplaming ta’siri bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Sug‘orilib dehqonchilik qilinadigan yerlarning gipslashganlik darajasini aniqlash va ularning unumdorligini qayta tiklashda qo‘llaniladigan choratadbirlarining afzalliklari, gipsli qatlam tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va boshqa xossalariiga bo‘lgan ta’siri, bunday tuproqlarni sifat jihatidan baholash bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari atroflicha tahlil etilgan. Adabiyotlar tahlilining so‘ngida respublikamizda qiyin melioratsiyalanadigan yerlarni meliorativ holatini baholash, unumdorlik darajasini belgilash uchun tuproq-baholash ishlarini bajarish, buning uchun gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashda qo‘llaniladigan pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsiyentlarni takomillashtirish orqali yerdan foydalanuvchilarni aniq yer kadastr ma’lumoti bilan ta’minalash, gipsli yerdardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish soha oldidagi dolzarb masalalardan biri ekanligi xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o‘tkazilgan hududning tabiiy sharoitlari, obyekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazilgan joyning geologik, geomorfologik, iqlim sharoitlari, o‘simlik dunyosi va inson omilining ta’siri to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi sug‘oriladigan bo‘z-o‘tloqi, o‘tloqi-bo‘z va o‘tloqi tuproqlarida olib borilgan bo‘lib, tayanch massiv sifatida tumandagi Y.Oxunboboyev nomli massivining sug‘oriladigan tuproqlari tanlangan.

Tadqiqotlar davomida dala, laboratoriya, kameral va kartografik ishlar tuproqshunoslikda umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirildi. Izlanishlarda geografik, genetik, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan foydalanildi. Olingan ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili B.A.Dospexovning «Методика полевого опыта» uslubiy qo‘llanmasi va «Microsoft Excel» dispersion uslub asosida hisoblandi.


Dissertatsiyaning «**Sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning xossalususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida sug‘oriladigan gipsli tuproqlarning morfologik tuzilishi, mexanik tarkibi, umumiy fizik, agrokimyoviy xossalari va tuproqlarning singdirish sig‘imi va singdirilgan kationlar tarkibi, sho‘rlanish darajalari asosida tuproqlarning meliorativ holatini baholash bo‘yicha bajarilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Mirzaobod tumanidagi jami 37193,8 ga sug‘oriladigan yerlarning 28253,1 ga yoki 76,0 foizi bo‘z-o‘tloqi, 4692,0 ga yoki 12,6 foizi o‘tloqi-bo‘z, 4248,7 ga yoki 11,4 foizi o‘tloqi tuproqlarni tashkil etadi (1-rasm).

Tayanch hudud sifatida tadqiqotlar o‘tkazilgan Y.Oxunboboyev nomli massivining sug‘oriladigan gipslashmagan va turli darajada gipslashgan tuproqlarning haydov qatlamlari asosan o‘rta, yengil va og‘ir qumoqli hamda qisman qumloqli bo‘lib, tuproq profilining quyi qatlamlari tomon mexanik tarkibning yengillashishi kuzatildi. Tayanch massivdagi jami sug‘oriladigan tuproqlar (4692,0 ga)ning mexanik tarkibi bo‘yicha olingan yakuniy ma’lumotlarga ko‘ra, og‘ir qumoqlar 8,2% (387,4 ga), o‘rta qumoqlar 43,1% (2025,9 ga), yengil qumoqlar 34,5% (1617,5 ga), qumloqlar 11,6% (543,4 ga), va qumlar 2,5% (117,8 ga)ni tashkil etib, massivda asosan o‘rta va yengil qumoqli tuproqlar katta maydonlarni egallaydi (2-rasm).



1-rasm. Mirzaobod tumanida sug‘oriladigan tuproqlarni tarqalishi, % hisobida



2-rasm. Tayanch massiv tuproqlarning mexanik tarkibi, % hisobida

Tayanch massiv tuproqlarini hajm og‘irligi gipslashmagan tuproqlardan turli darajada gipslashgan tuproqlar tomon gips miqdori va uning shakllariga bog‘liq holda ortib boradi. Jumladan, gipslashmagan o‘rta qumoqli tuproqlarning hajm og‘irligi haydov va haydov osti qatlamlarida $1,33\text{-}1,37 \text{ g/sm}^3$, kuchsiz gipslashgan og‘ir qumoqli tuproqda $1,39\text{-}1,43 \text{ g/sm}^3$, o‘rtacha gipslashgan tuproqlarda $1,41\text{-}1,46 \text{ g/sm}^3$ ni tashkil etib, tuproq profilining o‘rta qismida uning eng yuqori ko‘rsatkichi ($1,71 \text{ g/sm}^3$ gacha) qayd etildi.


Tayanch massiv sug‘oriladigan gipsli tuproqlari tarkibidagi gumus va oziqa elementlarni aniqlash bo‘yicha bajarilgan kimyoviy tahlil natijalariga ko‘ra, gipslashmagan tuproqlar profilida gumusning miqdori $0,512\text{-}1,297\%$, umumiy azot $0,049\text{-}0,091\%$, uglerodni azotga bo‘lgan nisbati (C:N) $6,0\text{-}8,5$ oralig‘ida tebranib, harakatchan fosfor $7,64\text{-}18,88 \text{ mg/kg}$, almashinuvchi kaliy $97\text{-}223 \text{ mg/kg}$, kuchsiz gipslashganda gumus miqdori $0,434\text{-}0,994\%$, umumiy azot $0,046\text{-}0,076\%$, uglerodni azotga bo‘lgan nisbati $5,5\text{-}8,4$, harakatchan fosfor $7,87\text{-}16,32 \text{ mg/kg}$,

almashinuvchi kaliy 106-198 mg/kg, o'rtacha gipslashganda gumus miqdori 0,423-0,753%, umumiy azot 0,038-0,064%, uglerodni azotga bo'lgan nisbati (C:N) 6,1-8,8, harakatchan fosfor 8,13-18,12 mg/kg, almashinuvchi kaliy (K_2O) 98-192 mg/kg tashkil etib, gipslashganlik darajalariga bog'liq holda haydov osti va quyi qatlamlar tomon ularning miqdori kamayib borishi kuzatildi.


Mirzaobod tumanining jami 37193,8 hektar sug'oriladigan tuproqlarining gumus bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, kam ta'minlangan maydonlar 98,0 foiz (36403 ga)ni, o'rtacha ta'minlangan maydonlar 2,0 foiz (790,8 ga)ni tashkil etadi. Y.Oxunboboyev nomli massiv jami sug'oriladigan (4692 ga) tuproqlarining 94,5 foizi (4434,1 ga) gumus bilan kam ta'minlangan, qolgan 5,5 foizi (257,9 ga) o'rtacha ta'minlangan tuproqlar guruhini tashkil etadi (3-rasm).

Tuman sug'oriladigan tuproqlarining fosfor (P_2O_5) bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, fosfor bilan juda kam ta'minlangan tuproqlar 46,9%, kam ta'minlangan 50,4%, o'rtacha 2,0%, yetarli 0,7% va yuqori ta'minlangan tuproqlar 0,03 foizni, tayanch massivda esa juda kam ta'minlangan 35,9% va kam ta'minlangan tuproqlar 64,1% maydonlarni tashkil etib, asosan harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan tuproqlar maydoni ustunlik qiladi (4-rasm).


Tuman sug'oriladigan tuproqlarining almashinuvchi kaliy (K_2O) bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra, juda kam ta'minlangan maydonlar 5,7%, kam ta'minlangan 65,1%, o'rtacha ta'minlangan 27,9% va yetarli ta'minlangan 1,3 foizni tashkil etib, tayanch massivda juda kam 3,8%, kam 66,1%, o'rtacha 26,7% va yuqori 3,4 foizga teng. Tumandagi sug'oriladigan tuproqlarning asosiy qismi almashinuvchi kaliy bilan kam ta'minlangan tuproqlar guruhiga kiritildi (5-rasm).



3-rasm. Tayanch massiv tuproqlarining gumus miqdori, % hisobida



4-rasm. Tayanch massiv tuproqlarining P_2O_5 bilan ta'minlanganligi, % hisobida.



5-rasm. Tayanch massiv tuproqlarining K_2O bilan ta'minlanganligi, % hisobida.

Hudud tuproqlarining sho'rlanish jarayoni, tuproq profilini mexanik tarkibi, sizot suvlari va undagi suv-tuz eritmalarining kapillyar ko'tarilishi va tuzlarning miqdori hamda sifati bilan uzviy bog'liqdir. Kimyoviy tahlil ma'lumotlariga ko'ra, gipslashmagan tuproqlarda quruq qoldiqning miqdori 0,445-0,885%, shundan, xlor ioni 0,011-0,021%, sulfat ioni 0,245-0,536 foizni tashkil etib, sho'rlanish tipi sulfatli, asosan kuchsiz sho'rlangan, kuchsiz gipslashgan tuproqlarda quruq qoldiq 1,067-1,932%, shundan, xlor ioni 0,007-0,142%, sulfat ioni 0,572-0,868%, sho'rlanish tipiga sulfatli va qisman xlorid-sulfatli, asosan o'rtacha va quyi qatlamlar tomon kuchli sho'rlangan. O'rtacha gipslashgan tuproqlarda quruq qoldiq 1,056-2,102%, shundan, xlor ioni 0,007-0,135%, sulfat ioni 0,703-0,821%,

sho'rlanish tipi sulfatli va xlorid-sulfatli, asosan o'rtacha va kuchli sho'rlangan tuproqlar guruhini tashkil etishi aniqlandi. Yakuniy natijalarga ko'ra, tayanch massiv hududidagi sug'oriladigan o'tloqi-bo'z tuproqlarining 21,3 foizi kuchsiz, 72,2 foizi o'rtacha, 6,5 foizi kuchli va juda kuchli sho'rlangan.

Kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, tuproqning mexanik, mineralogik tarkibi va organik moddalarning umumiyligi miqdoriga bog'liq holda tayanch massiv sug'oriladigan gipslashmagan tuproqlarning haydov qatlamlarida singdirilgan kationlar yig'indisi 10,18-10,23 mg-ekv, kuchsiz va o'rtacha gipslashgan ayirmalarda 9,04-9,77 mg-ekv ni tashkil etib, singdirilgan kationlar orasida asosiy o'rinni kalsiy va magniy kationlari egallaydi. Natriyning ulushi gipslashgan tuproqlarda 2,1-4,7%, kuchsiz gipslashgan ayirmalarda 6,3-9,9% va o'rtacha gipslashganda 10,2-15,0 foizga teng bo'lib, gipslashmagan tuproqlar sho'rtoblashmagan, kuchsiz gipslashgan tuproqlar kuchsiz va o'rtacha gipslashgan tuproqlar o'rtacha sho'rtoblashgan.

Tadqiqot o'tkazilgan hududning turli darajada sho'rlangan va gipslashgan sug'oriladigan o'tloq-bo'z tuproqlarida suvda oson eruvchi tuzlar va gips miqdori bo'yicha olingan kimyoviy tahlil ma'lumotlari asosida metrlik qatlam qalinlikdagi suvda oson eruvchi tuzlar va gips zaxirasi hisoblandi. Unga ko'ra, gipslashmagan tuproqlarda suvda oson eruvchi tuzlar zaxirasi 107,5 t/ga va gips zaxirasi 716,6 t/ga, shunga mos ravishda kuchsiz gipslashganda tuzlar 231,72 t/ga, gips 1643,33 t/ga, o'rtacha gipslashganda tuzlar 124,74 t/ga, gips 3080,21 t/ga ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning «**Sug'oriladigan gipsli tuproqlarning unumdarligini baholash**» deb nomlangan to'rtinchchi bobiga to'rt qismdan iborat bo'lib, unda tuproq qatlamlarida gipsning shakllanishi, kelib chiqish sabablari va tarqalishi, gips miqdorini hisobga olgan holda gipslashganlik darajalari, gips qatlam chuqurligi va qalinligi bo'yicha kartogrammalar tuzish, gips miqdori bilan g'o'za hosildorligi o'rtasidagi korrelyativ bog'lanishlar va ular asosida tuproqlarning gipslashganlik darajalari bo'yicha ishlab chiqilgan pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsiyentlar hamda gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholash natijalari bayon etilgan.

Tuproq qatlamlarida gipsning tuzilishi uning joylashgan o'rniga ko'ra, turlicha shakllardan iborat bo'lib, tuproq haydov qatlami (yuza qismi)da asosan mayda unsimon ($\leq 1,0$ mm) shaklga ega bo'lgan kristallardan iborat zarrachalar uchraydi. Mayda unsimon shaklga ega bo'lgan gips zarrachalari ko'p holatlarda tuproq yuza qatlamlarida uchraydi. Buning asosiy sabablaridan biri tuproqni kuz-qish mavsumida haydash, o'simliklarga vegetatsiya davrida agrotexnika ishchi organlarini kuchli ta'siri ostida gips zarrachalari bir-biriga birika olmaydi va tuproq zarralari kattaligida uchrab, xuddi tuproq singari uning rangiga burkanib oladi. Bunday shakldagi gips mexanik tarkibi og'ir qumoqli tuproqlarda kuchli va juda kuchli zichlanishni yuzaga keltiradi. Tuproq profilning o'rta va quyi qismida esa asosan tayoqchasimon-prizmatik shaklga ega bo'lgan gips zarrachalari o'zaro birikib mayda (1,0-10 mm), o'rta (10-100 mm) va yirik (≥ 100 mm) gips donalarini hosil qilganligi kuzatiladi.

Tayanch massiv sug'oriladigan tuproqlarida bajarilgan kimyoviy tahlil natijalariga ko'ra, gipslashmagan tuproqlarda gips ($\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$)ning miqdori 2,68-9,20 foizni, karbonatlar (CO_2) miqdori 4,05-6,09%, tuproq muhiti (pH)

7,58-7,64, mos ravishda kuchsiz gipslashgan tuproqlarda 11,44-17,25 foizni, karbonatlar miqdori 3,13-5,63%, (pH) 7,58-7,71, o‘rtacha gipslashganda uning miqdori 12,27-29,03 foizni, karbonatlar miqdori 5,31-6,41%, (pH) 7,61-7,71 atrofida bo‘lib, kuchsiz ishqoriy muhitda ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Sug‘oriladigan o‘tloqi-bo‘z tuproqlaridagi karbonatlar va gips miqdori, % hisobida

Kesma raqami	Chuqurlik, sm	Karbonotlar, CO₂ %	SO₄, %	Gips, % CaSO₄*2H₂O	(pH)
Gipslashmagan					
108	0-30	4,05	3,40	6,08	7,58
	30-51	4,93	4,02	7,19	7,61
	51-88	4,96	2,76	4,94	7,65
	88-117	5,24	2,32	4,16	7,62
	117-166	6,09	2,86	5,12	7,67
166	0-26	5,10	1,50	2,68	7,64
	26-48	4,93	4,77	8,53	7,61
	48-85	5,97	5,14	9,20	7,66
	85-108	5,67	3,61	6,45	7,59
	108-159	5,98	2,23	4,00	7,64
Kuchsiz gipslashgan					
4	0-27	4,75	6,39	11,44	7,59
	27-49	4,82	6,29	11,26	7,62
	49-88	3,62	9,63	17,25	7,64
	88-112	3,13	7,68	13,74	7,66
	112-154	5,17	2,73	4,87	7,71
336	0-27	4,50	8,39	15,02	7,61
	27-49	5,14	9,22	16,49	7,60
	49-87	4,75	4,85	8,68	7,58
	87-112	5,45	3,24	5,79	7,60
	112-167	5,63	1,82	3,25	7,62
O‘rtacha gipslashgan					
16	0-29	5,31	6,85	12,27	7,66
	29-46	4,50	6,64	11,88	7,61
	49-86	4,51	15,83	28,34	7,70
	86-120	6,41	13,67	24,47	7,69
	120-160	3,24	4,25	7,61	7,68
33	0-22	5,42	7,65	13,68	7,65
	22-35	4,89	8,99	16,08	7,69
	35-58	4,50	16,22	29,03	7,71
	58-96	5,74	11,09	19,85	7,64
	96-133	5,77	5,87	10,51	7,67
	133-170	5,53	1,81	3,24	7,66

Tadqiqotlar davomida olib borilgan dala va kimyoviy tahlil ishlar kameral sharoitda qayta ishslash asosida tayanch massiv sug‘oriladigan tuproqlarining gipslashganlik darajalari, gipsli qatlam boshlanish chuqurligi va gipsli qatlam qalinligi bo‘yicha GAT texnologiyalari asosida 1:10000 masshtabli kartogrammalari tuzildi.

Tayanch massiv sug‘oriladigan tuproqlari tarkibidagi gips miqdorini hisobga olgan holda gipslashganlik darajalari bo‘yicha tuzilgan kartogramma ma’lumotlarining yakuniy natijalariga ko‘ra, massiv sug‘oriladigan tuproqlarining 67,3 foizi gipslashmagan, 27,5 foizi kuchsiz gipslashgan hamda 5,2 foizi o‘rtacha gipslashgan. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bir qarashda gipslashmagan yer maydonlari ko‘pdek ko‘rinsada, lekin, mazkur maydonlardagi tuproq tarkibida turli miqdorda gips mavjud bo‘lib, ularning miqdori 10 foizdan kamligi bois qabul qilingan gradatsiya bo‘yicha gipslashmagan tuproqlar qatoriga kiritildi.

Tuproqlarning gips qatlam boshlanish chuqurligini aniqlash, gipsli tuproqlardan qishloq xo‘jaligida samarali foydalanish, jumladan, tuproqqa ishlov berish, o‘simliklarni joylashtirish, sug‘orish, o‘g‘itlash kabi agro tadbirlarni belgilash imkonini beradi. Tuzilgan kartogramma ma’lumotlariga ko‘ra, tayanch massivning ustki gipslashgan tuproqlar maydoni 2,9%, yuza gipslashgan 5,8%, chuqurroq gipslashgan 7,7%, chuqur gipslashgan 11,0% va juda chuqur gipslashgan tuproqlar maydoni 5,2 foizni tashkil etdi.

Tayanch massiv tuproqlarining gips qatlam qalinligi bo‘yicha tuzilgan kartogramma ma’lumotlariga ko‘ra, kam qalinlikka (<40 sm) ega bo‘lgan gipsli maydonlar 21,0%, o‘rtacha qalinlikka (40-100 sm) ega bo‘lgan gipsli maydonlar 9,1% va gipsli qatlami qalin (>100 sm) bo‘lgan maydonlar 2,6 foizni tashkil etdi. Ko‘rinib turibdiki, hududda asosan kam qalinlikka (<40 sm) ega bo‘lgan gipsli qatlam tuproq profiling o‘rta qismida katta maydonlarni egallaydi.

Gipsli sug‘oriladigan tuproqlarning gipslashganlik darajasi bilan tадqiqot obyektida yetishtirilayotgan g‘o‘za ekini hosildorligi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklar hisoblandi. Unga ko‘ra, gipslashmagan tuproqlar bilan paxta hosili o‘rtasidagi aloqadorlik juda yaxshi ($r=+0,93$), kuchsiz gipslashganda yaxshi ($r=+0,90$), o‘rtacha gipslashganda zich ($r=+0,80$) va kuchli gipslashganda o‘rtacha ($r=+0,70$) ekanligini ko‘rsatdi. Gips miqdorining ortib borishi bilan g‘o‘za hosildorligi kamayib borishi kuzatildi.

Mazkur gipsli tuproqlarning gipslashganlik darajalari bilan g‘o‘za hosildorligi o‘rtasidagi korrelyativ bog‘liqliklar asosida sug‘oriladigan tuproqlarda gips miqdorini hisobga olgan holda gipslashganlik darajalari bo‘yicha pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsiyentlari ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval

Sug‘oriladigan tuproqlarning gipslashganlik darajalari bo‘yicha pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsientlari

T/r	Gipslashganlik darajasi	Gips miqdori, % ($\text{CaSO}_4 \times 2\text{H}_2\text{O}$)	Pasaytiruvchi bonitirovkalash koeffitsientlari
1	Gipslashmagan	<10	1,0
2	Kuchsiz gipslashgan	10-20	0,90
3	O‘rtacha gipslashgan	20-40	0,70
4	Kuchli gipslashgan	>40	0,50

Tuproqlarning gipslashganlik darajasi o‘simlik ildiz tizimining rivojlanishiga kuchli ta’sir etib, o‘simliklarning maqbul o‘sib rivojlanishiga va hosil miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Undan tashqari, tuproqning bir qancha xossalalariga

(fizikaviy, kimyoviy, biologik) ham ta'sir etib, qiyin melioratsiyalanuvchi tuproqlar qatoridan joy olishiga sabab bo'ladi. Shu kabi salbiy omillarni sug'oriladigan tuproq unumdorligiga ta'sirini hisobga olgan holda gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashda gips bo'yicha ishlangan pasaytiruvchi koeffisiyentlardan foydalanish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda respublikamiz sug'oriladigan gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashda 2005-yilda ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan «O'zbekiston Respublikasi sug'oriladigan tuproqlarini bonitirovkalash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar»da keltirilgan gipsli qatlam chuqurligi bo'yicha ishlangan pasaytiruvchi koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Bunda, g'o'za va g'o'za kompleksiga kiruvchi qishloq xo'jaligi ekinlari ildizi oziqlanishiga qarshilik qiluvchi gipsli qatlam chuqurligi (<30 sm, 31-50 sm, 51-70 sm, 71-100 sm, >100 sm) uchun ishlangan bonitirovkalash koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Ko'rinish turibdiki, bu baholash amaliyotini bajarish uchun dala sharoitida kavlanadigan kesmalarni morfologik belgilarini aniqlash vaqtida gipsli qatlam chuqurligiga ham aniqliklar kiritiladi. Lekin, ko'z bilan ilg'ab bo'lmas gipsning mayda unsimon tarqoq va tuproq rangiga mos gips shakllari ham mavjud bo'lib, uni faqatgina laboratoriya tahlili orqali aniqlash mumkin.

Laboratoriya sharoitida aniqlangan gips miqdori tuproq qatlamlarini jumladan, o'simlik ildizi oziqlanadigan qatlam yoki undan ham quyi qatlamlar qanchalik gipslashganligini aniqlash imkonini beradi. Shularni inobatga olgan holda gipsli tuproqlarni baholash gips miqdoridan kelib chiqib gipslashganlik darajalari uchun pasaytiruvchi koeffitsiyentlari ishlab chiqildi. Natijada, sug'oriladigan gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashda amaldagi gipsli qatlam chuqurligi bilan birga gipslashganlik darajalari bo'yicha ishlab chiqilgan pasaytiruvchi koeffitsiyentlardan ham foydalanish imkonи paydo bo'ldi. Bu esa tarkibida gips mavjud bo'lgan sug'oriladigan tuproqlarni yanada ishonchli baholash imkonini yaratadi.

Sug'oriladigan tuproqlarni gipslashganlik darajalari bo'yicha ishlab chiqilgan bonitirovkalash koeffitsiyentlari tayanch massiv sug'oriladigan tuproqlari misolida aprobatasiyadan o'tkazildi. Bunda sug'oriladigan gipsli tuproqlarni sifat jihatidan baholashda yangidan ishlab chiqilgan gipslashganlik darajalari va amaldagi gipsli qatlam qalinligi bo'yicha pasaytiruvchi koeffitsiyentlardan foydalanildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, tayanch massiv sug'oriladigan gipsli tuproqlari unumdorlik darajasiga qarab sifat jihatidan quyidagi kadastr guruhlariga birlashtirildi.

Birinchi kadastr guruhi I va II-sinf (1-20 ball)ga kiruvchi sifat jihatidan yomon yerlar massivda mavjud emas, ikkinchi kadastr guruhiga kiruvchi III va IV-sinf (21-40 ball)ga mansub, o'rtachadan past yerlarning 21-30 ball bonitetga ega bo'lgan tuproqlar massivda uchramadi va 31-40 balli yerlar jami sug'oriladigan yer maydonlarini 12,6 foizini yoki 593,1 hektarini, uchinchi kadastr guruhiga mansub o'rtacha (41-60 ball), V-sinfiga tegishli bo'lgan 41-50 bonitet ballga ega bo'lgan yerlar 58,7 foizni yoki 2754,8 hektarni, VI-sinfiga tegishli 51-60 bonitet balli yerlar 28,7 foizni yoki 1344,1 hektarni tashkil etib, massivda to'rtinchi va beshinchi kadastr guruhlariga kiruvchi sifati jihatdan yaxshi (61-80 ball) va eng yaxshi

(81-100 ball) yerlar uchramadi. Tayanch massivning sug‘oriladigan tuproqlarining o‘rtacha ball boniteti 47 ballni tashkil etdi.

